

**“ALVIDO BOLALIK” ASARIDA YORITILGAN JAMIYATDAGI
ILLATLARNING YOSHLAR KELAJAGIGA SALBIY TA’SIRI**

Ismailova Fotima

Namangan davlat chet tillari instituti magistiri

Annotatsiya: Ushbu maqola Tohir Malik qalamiga mansub “Alvido bolalik” asari yuzasidan jamiyatdagi asrdan asrlarga o’tib borayotgan, hech poyoniga yetmayotgan turli xil illatlar tufayli beg’ubor yoshlik nima ekanligini his qilmagan va butun bir hayoti barbod bo’lgan murg’ak qalblar taqdirini tahlil qilish barobarida bunday vaziyatlarning chin aybdorlarini ko’rsatadi.

Kalit so’zlar: axloq tuzatish koloniyasi, loqaydlik, xudbinlik, baxtsizlik, bolalik, o’smir.

Abstract: This article is based on the work of Tahir Malik “Farewell to Childhood” and describes the fate of poor souls who did not feel what innocent youth was and whose whole life was ruined due to various vices in society that passed from century to century, and never have not come to an end. Analysis reveals the true culprits of such situations.

Key words: correctional colony, indifference, selfishness, unhappiness, childhood, teenager.

Аннотация: Данная статья основана на произведении Тахира Малика «Прощай, детство» и описывает судьбы бедных душ, которые не почувствовали, что такое невинная молодость и вся жизнь которых была загублена из-за различных пороков в обществе, перешедших из века в век, и никогда не подошли к концу. Анализ показывает истинных виновников подобных ситуаций.

Ключевые слова: исправительная колония, равнодушие, эгоизм, несчастье, детство, подросток.

Qalami o’tkir yozuvchi va o’z asarlarining tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan o’zbek yozuvchilari orasida ajralib turadigan Tohir Malikning “Alvido bolalik” asarida qalamga olingan mavzusi hali-hanuz o’z dolzarbligini yo’qotmagan. Asarda 80-90 yillar voqealari tasvirlansa ham, muammo hali ham o’zgarmagandek. Nega yoshlarga jinoyat olami jozibali ko’rinadi? Jinoyat olamining nimasi ularga qiziq? Va shu tubsiz jarga qulashlariga, asosan, kimlar aybdor?! Yozuvchining bu asari adib ijodida o’ziga xos o’ringa ega. Bu asarning asosiy g’oyasi-hech kim jinoyatchi bo’lib tug’ilmaydi, bolani atrof-muhit, jamiyatdagi turli xil illatlar jinoyatchiga aylantiradi. Adib jinoyat olamini “Shaytanat”, ya’ni shaytonlar yetovidagi zulmkorlar mamalakati deb atab, “Ehtiyot bo’ling, bu ko’chaga yaqin yo’lamang. Boshi berk bu ko’channing adog’ida faqatgina azobli, xorli o’lim topasiz” demoqchi bo’ladi. Ushbu asarning nomidan ham

ulkan ma’no anglash mumkin. Qachon yoshlikka “alvido” deyish mumkin? Biz bilamizki, qachonki inson ham jismonan, ham ma’nan ulg’ayganda yoshlik davri bilan o’z-o’zidan xayrlashadi. Ammo shunday bolalar borki, ular eng beg’ubor umr pallasi yoshlik davrini jismonan emas, balki ma’nan ulg’ayib, ya’ni turli xil turmush tashvishlari, qiyinchiliklari va erta kunda tushgan ro’zg’or g’ami bilan o’tkazib yuborishga mahkum. Asarning debochasida yozuvchi quyosh tasviri orqali yoshlik davrini bolalar turli xil tarzda boshdan kechirishiga juda chiroyli tarzda qiyoslab beradi: “Quyosh qayerdadir tog` ortidan, qayerdadir cho`l adog`idan, qayerdadir asriy muzliklar orasidan bosh ko`taradi. Quyoshning tongdagi, ayniqsa, bahor tongidagi ko`rkini ko`rish barchaga ham nasib qilavermaydi. Quyosh barchaga baravar nur sochadi, deydilar. Haq gap. Biroq, uning nuridan hamma ham bir xilda bahramand bo`lavermaydi.”¹ Bu bilan yozuvchi har bir murg`ak qalb ham beg`ubor yoshlik davrini bir xil qarshi olavermaydi, demoqchi bo`ladi. Kimdir mehrga to`la, qiyinchiliklardan holi, oilada, ota-onasi va yaqinlari bilan yoshlik sururini sursa, kimdir bu davrni panjara ortida, ahloq tuzatish koloniyasida, to`rt devor orasida yoki ziddiyat va ro`zg`or tashvishlari, qiyinchiliklarga boy zulmat ostida o`tkazadi demoqchi, nazarimda. Yoshlik inson umrining eng yorqin pallasi hisoblanadi. “Yoshlik inson hayotining so`ngi yillari uchun urug` qadaladigan bahor pallasidir.”²

Asardagi Asror, Salim va Dilfuza kabi obrazlarning suyanay desa suyanchig`i, dardlashay desa dardkashi yo`q. Hattoki ona tili darsida baxtli bolalik haqida insho yozish uchun arzigulik xotirasi ham yo`q. Ayniqsa, asardagi Asror obraziga achinasan kishi. Bechoraning o`z mustaqil fikri bo`lsa ham uni bayon etolmaydi. Uning o`qishga bo`lgan qiziqishi va maktab fanlarida faol bo`lishiga qaramay, otasi sabab orzulari uchun kurasholmaydi. Hattoki otasining qistovi bilan aniq fanlarga chuqurlashtirilgan iqtidorli maktabni tark etib oddiy maktabga joylashtiriladi. Uning hayotida tanlashi mumkin bo`lgan 3 ta muhim yo`l borligi ajoyib tarzda tasvirlangan. Birinchi yo`lning boshida “oq shayton” turibdi. Bu shayton unga, bu yol`ga kirsang seni do`stlaring pul topib aql topmagan kishilar bo`ladi va sen pul, maishat ichidasan. Ammo kim kul desa kulasan, kim eshak bo`lib hangra desa hangraysan. Puli ko`p “qul” bo`lasan demoqchi go`yo. Buni Asrorning otasi deyishimiz mumkin. Chunki uning otasi otarchi bo`lib, Asrorni ham tuni bilan to`ylarda o`zi bilan doirachi qilib olib yurishi, zarracha ham ma`naviyati yo`q johil inson bo`lishi, o`g`lining ilmga va bilimga chanqoqligi, orzuniyatlarining unga zarracha ham qizig`i yo`qligi buning yaqqol dalilidir. Ikkinchi yo`lda esa “qora shayton” turadi. Bu yo`lda sen hech kimga egilmaysan, senga hamma qulluq qiladi. Atrofingdagilar sening izmingda bo`ladi. Ko`ngling tusaganini qila olasan. Bu shaytonni Qamariddinga qiyoshlashimiz mumkin. Aslida Qamariddin ham jamiyat qurboni. Onasi tomonidan yetimxonaga tashlab ketilgani, hali hanuz otasi kim

¹ Tohir Malik. «Alvido bolalik». 2018, 3-bet)

² Ya. B. Knyajnin. Ziyouz.com.

ekanligini bilmasligi, yoshligida shu jamiyatdagi odamlar tomonidan yerga urilishi va hech kimga kerakli emasman degan tushunchaning ongida paydo bo‘lishi uni butun bir jamiyatga nafrat bilan ulg‘ayishiga sabab bo‘ladi. U butun umri davomida o‘ziga zulm berganlardan, asosan, onasidan qasos olish payida yashaydi. Shuning uchun atrofiga o‘ziga o‘xshagan bolalarni, asosan alamzadalarni to‘playdi. Asarning boshida Qamariddinga nisbatan qalbimizda nafrat uyg‘onishi mumkin. Ammo asar davomida u ham yaxshi inson ekanligi, qalbining tub-tubida insoniylik borligini uni Asrorga nisbatan munosabatida, ya‘ni Asrorni o‘qitmoqchi bo‘lishi, katta odam qilishni xohlashi, eng asosiysi otasining zulmidan ozod qilishga urinishida ko‘rishimiz mumkin. Unga ham jamiyat tomonidan yaxshi munosabatda bo‘linganida yaxshi inson bo‘lishi mumkinligini quyidagi gaplaridan bilishimiz mumkin: “Meni birov suymagan edi. Men shu bolani odam qilaman, o‘zim qamalib, otilib ketsam ham, uni o‘qitaman!”³ Uchinchi yo‘l boshida esa hech kim yo‘qday go‘yo. G‘ira-shira yo‘l boshida dam-badam ustoz Mahkam aka ko‘rinib turadi. U bu yo‘lga bir umr chumoli kabi halol mehnat qilmoqchi bo‘lganlar, talashish-tortishishdan tolmaydigan va o‘sha zamon boyvachchalari tomonidan kulgi qilinishdan ranjimaydigan odam kirsin deyayotganday. Bundan o‘sha zamonda o‘qimishli va ziyoli insonlarning qadr-qimmatini yo‘qligini, jamiyatda, asosan, puldorlar ustun turishi, pul bilan hamma narsani hal qilsa bo‘ladi degan tushunchaning mavjud ekanligini ham tushunishimiz mumkin. Aslida zamon yomon emas, shu zamoni o‘zgartirgan odamlar yomon. Shuning uchun ham Asror bechorani uchinchi yo‘lni tanlashga yuqoridagi ikki yo‘ning ustunligi yo‘l qo‘ymayotganini bilishimiz mumkin. Ammo Asrorning eng yaqin insoni, mehriboni, munis validasi bor. U Asrorga achinadi, uni o‘zi istagan ezgu yo‘ldan, ya‘ni ziyo yo‘ldan ketishini istaydi. Ammo badbaxt va qattiqqo‘l eridan hayiqqani uchun o‘g‘lini himoya qila olmaydi. Bundan o‘zbek ayollarining qanchalik itoatkorligi va natijada o‘zi yorug‘ dunyoga keltirgan norasidalarining kelajagiga befarq bo‘lib qolishini bilib olishimiz mumkin.

Asarning yana bir qahramoni esa oiladagi yo‘qchilik, otasining oilasiga bo‘lgan mas‘uliyating yo‘qligi sababli erta kunda “qarib”, ulg‘ayib qolgan Salim obrazidir. Uning otasini qanday inson ekanligini asardagi quyidagi parchadan osongina payqab olishimiz mumkin: “Salimning otasi bolaligida oyogi‘ni sindirib olganmi yo tug‘ma cho‘loqmi, har holda hassasiz yurolmaydigan bu odamning mehnatga tobi-toqati yo‘q. Shamollasa, aksirishga ham erinadigan ota bolasi nechtaligini ham bilmasa kerak. O‘n bir bola, nima ichyapti, ikki qiz nima uchun erga chiqmay turib tug‘ib oldi, endi ularning turish-turmushi nima bo‘ladi – ishi yo‘q”. Bu misralardan jamiyatda o‘smirlarning to‘g‘ri yo‘ldan adashishi va ohiri zulmat bo‘lgan tubsiz jinoyat jariga qulashining asosiy sabablari ota-onalarning mas‘uliyatsizligida deyishimiz mumkin.

³ T. Malik. “Alvido bolalik” 2018. 52-bet.

Naqadar ayanchli taqdirga ega Salimga achinmaslikning iloji yo‘q. Shuning uchun ham unga birdan bir tirgak va oilasini ta‘minlash uchun eng yaxshi yo‘l Qamaridding jinoyatga to‘la yo‘g‘rilgan yo‘li bo‘lib tuyuladi.

Asardagi keyingi obraz esa Dilfuza. Bu qizning onasi otasi bilan avtohalokatga uchragandan so‘ng vafot etadi. Otasini esa oyog‘i kesib tashlanib, bir umr nogironlar aravachasiga mixlanadi. Nochor ota ikki o‘g‘il va bir qizi Dilfuzani mehribonlik uyiga topshiradi. Vaqt o‘tgandan keyin esa oila yaqinlari otasiga g‘amxo‘rlik qilib, osh-ovqatiga qaraydi deb Dilfuzani qaytarib kelishadi. Qizning yaqini, sirdoshi yo‘q. Yaqin qarindoshlari o‘zi bilan ovvora. Otasi esa kun-u tun qorong‘u xonada o‘z o‘ylariga cho‘mgancha o‘tiradi. Bechora qiz dugonalari kabi chiroyli kiyinishni istaydi. Ammo otasining nogironlik nafaqasi ro‘zg‘orga arang yetadi. Qizning ko‘ngli chinakam yarimta. Shuning uchun ham unga rahmi kelib chindan ham g‘amxo‘rlik qilmoqchi bo‘lgan Asrorga ko‘ngil qo‘yadi. Ammo Asror unga shunchaki achinishi sabab yordam berib yurishni bilmaydi. Shundanmi, u Asror bilan Qamariddin to‘dasiga qo‘shilib qoladi. Biz asar davomida hattoki jamiyatdagi bolalarning ta‘lim va tarbiya olishidagi asosiy bo‘g‘in hisoblangan pedagoglarning ham kamchiliklarini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, maktabda Asror va Dilfuzaning o‘zaro ko‘p gaplashganini ko‘rib maktabda turli xil gap so‘zlar ko‘payadi. O‘qituvchilar birinchi bo‘lib Asror bilan gaplashishni o‘rniga Dilfuzaga tanbeh berishadi. Sababi ular Asrorni bilimli o‘quvchi, uning otasini puli ko‘pligi uchun Dilfuza uning boshini aylantirgan deb noto‘g‘ri talqin qilishadi. Hech birovlari Dilfuzaning shaxsiy hayoti yoki uning muammolari bilan qiziqishmaydi. Dilfuzaning sinf rahbari A‘zamxonova asar yakuniga yaqin uning otasiga turmushga chiqadi. Ammo hech qachon Dilfuzani tushunishga harakat qilmaydi. Chinakam sirdosh va dardkash bo‘la olmaydi. Unga faqat to‘siqlar qo‘yish bilan tobora Dilfuzani ruhan ezadi.

Yuqoridagi fikrlarimizni o‘qigan kitobxon oilasi nochor, tirikchilikdan qiynalgan jamiyatdagi barcha bolalar jinoyatchi bo‘ladimi deb tushunishlari mumkin. Aslo yo‘q, bunday emas. Asosiy gap mehrda va oiladagi hamfikrlikda. Misol uchun asardagi Turob obrazi ham chinakam qiyinchiliklar orasida yashaydi. Akasining jasadini Afg‘onistondan olib kelinganida onasi bunga chidolmay jinni bo‘lib qoladi. Oiladagi yetti nafar bola otasining o‘ziga qolib ketgan. Lekin ota farzandlarini tashlab qo‘ymagan. Turob bilan darsdan so‘ng halol mehnat qilib oila tebratadi. Asardagi Zoir ismli obraz esa chin ma‘nodagi baxtli bola. Asror unga juda havas qiladi. Buni Asrorning quyidagi o‘ylaridan ham bilib olishimiz mumkin: “Zoir baxtli bola. Ota-onasi injener, uyda o‘zi-yu singlisi. Gazetaga xabar yozadi. Nima istasa, shunga erishadi.”⁴ Bu misralardan Zoirning ham Asror kabi o‘ziga to‘q oilada yashashi ammo,

⁴ T. Malik. “Alvido bolalik”. 2018. 29-bet.

otalarining e’tibori, dunyoqarashi turlicha ekanligi, farzandlarining orzu-istaklari bilan qiziqishi yoki aksincha ekanligini yaqqol tushunishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘smirlarning kelajagi va jamiyatda munosib o‘rin topa olmasliklarining asosiy sababi deb **loqaydlik**, ya’ni jinoyatni oldini olish o‘rniga fojia sodir bo‘lgandan keyin muhokama qilishlari, atrofidagi insonlar taqdiriga befarq bo‘lishlarini tushunishimiz mumkin. Asardagi juda ham ijobiy hislatlarga ega, chinakam sofdil inson, o‘z kasbiga mehr qo‘yib sitqidildan ado etuvchi obraz, ichki ishlar xodimi Maqsud Soliyev loqaydlik haqida shunday deydi: ”Jamiyat uchun jinoyatchidan ko‘ra loqayd odam xavfliroq. Jinoyatchi jabrini tortadi, balki to‘g‘ri yo‘lini topib olar. Ammo loqayd odam esa yangi-yangi jinoyatlarni ko‘rganida ham ko‘z yumib ketaveradi. Loqaydlik degan dard bo‘lmaganida qanchadan qancha odam jinoyat jari yoqasida to‘xtatib qolinardi.”⁵ Asarda bunday loqayd odamlarga pivoxona sotuvchisini, u yerdagi odamlarni, jinoyatlarni yopdi-yopdi qilib yuborib, insonlarning mansabiga qarab muomala qiladigan ichki ishlar xodimlarini yoki ayrim pedagoglarni keltirishimiz mumkin. Misol uchun pivoxona yaqinida tunda Qamariddin, Salim, Asror to‘satdan mudhish jinoyat sodir etadilar. Mirqosim Mirtillayevni do‘pposlab o‘ldirib qo‘yishadi. Hali joni uzilmagan jabrdiydani qo‘rqanlaridan yaqin oradagi anhorga uloqtirib qochishadi. Ayni shu paytda pivoxona ichi gavjum bo‘lsa ham biror kim shu jinoyatni ko‘rib qolmaydi, jinoyatning oldini ololmaydi. Balki atrofdegilar sal e’tiborli bo‘lishganda Mirqosimning hayoti saqlanib qolinarmidi? Bir oila yakka -yu yolg‘iz boquvchisi, otasidan ajralib qolmasmidi? Keyingi sabab esa, **ota-onalarning farzandining tarbiyasiga bee’tiborligi**, asosiy, vazifalari faqat tirikchikni o‘tkazish deb qarashlari yoki farzandlarining o‘y-fikrlari, orzulari bilan umuman ishlari yo‘qligidadir. Keyingi sabab esa, jamiyatda ildiz otgan illatlardan yana biri, **xudbinlik**, ya’ni insonlarni faqat o‘z-o‘zini o‘ylashi, sen menga tegma, men senga tegmayman qabilida ish tutishidir. Jamiyatdagi bu illatlar kamaymas ekan, yoshlarning hayoti barbod bo‘laveradi, jiyotchilar ko‘payaveradi. Asar fojiali yakun topadi. Xulosa esa kitobxonning o‘ziga qoldiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tohir Malik. “Alvido bolalik”. 2018.
2. <https://www.researchgate.net>
3. Ziyouz.com

⁵ T. Malik. “Alvido bolalik”. 2018. 19-bet.